



NEMIS VA O'ZBEK ADABIYOTIDA SHAKLLANGAN TASVIR ETIKETI (Hermann Hesse hamda Isajon Sulton ijodi misolida)

Abdullayeva Ulfat Turaxonovna,

Toshkent davlat agrar universiteti Xorijiy tillar kafedrasini mudiri, dotsent.

ulfatoy.abdullayeva@inbox.ru

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1566>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 11

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

ijod, tafakkur, ruh, quvvat, mantiq, uslub, shakl, davr

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada davrlararo mushtarak jihatlar modusi talqin etildi. Unda har bir xalq adabiyoti va adiblari, ijodiy kamolot nuqtalari tahlil markaziga tortildi. Mazkur maqolada nemis va o'zbek adabiyotida shakllangan tasvir etiketi qiyosiy-tahliliy asosda yoritiladi. Xususan, adabiy tafakkur evolyutsiyasi jarayonida tasvir vositalarining shakllanishi, ularning milliy va umuminsoniy xususiyatlari, badiiy uslub hamda estetik qarashlar bilan uzviy bog'liqligi tadqiq etiladi. Nemis adabiyoti vakili Hermann Hesse hamda o'zbek adabiyotining zamonaviy namoyandasi Isajon Sulton ijodi misolida tasvir etiketi, ruhiy kechinmalar ifodasi, tabiat va inson munosabatlari, ichki olamni badiiy aks ettirish prinsiplari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada badiiy tasvirning etik me'yorlari, ya'ni muallifning voqelikka, qahramonlarga va o'quvchiga munosabatida namoyon bo'ladigan estetik va axloqiy mezonlar ochib beriladi. Ijodkorlarning individual uslubi, tasviriy vositalarni tanlashdagi mahorati, ramziy va metaforik ifoda imkoniyatlari orqali milliy adabiyotlarning o'zaro ta'siri hamda uyg'unlashuv jarayonlari asoslab beriladi. Tahlillar natijasida nemis va o'zbek adabiyotida tasvir etiketi nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki inson ruhiyati, tafakkuri va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim estetik kategoriya ekanligi ko'rsatib beriladi. Mazkur yondashuv orqali adabiy jarayonda an'ana va yangilanish uyg'unligi, milliylik va universallik o'rtasidagi dialektik bog'liqlik masalalari kengroq talqin etiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 11

KEYWORDS

creativity, thinking, spirit, power, logic, style, form, era

ANNOTATION

This article interprets the mode of common aspects between periods. It focuses on the literature and writers of each people, the points of creative maturity. This article examines the image etiquette formed in German and Uzbek literature on a comparative-analytical basis. In particular, the formation of image means in the process of the evolution of literary thought, their national and universal characteristics, their inextricable connection with artistic style and aesthetic views are studied. The image etiquette, the expression of spiritual experiences, the relationship between nature and man, and the principles of artistic reflection of the inner world are analyzed using the examples of the work of the representative of German literature Hermann Hesse and the modern representative of Uzbek literature Isajon Sultan. The article also reveals the ethical norms of artistic image, that is, the aesthetic and moral criteria that are manifested in the author's attitude to reality, heroes, and the reader. The individual style of the creators, their skill in choosing pictorial means, and the possibilities of symbolic and metaphorical expression are used to substantiate the interaction and harmonization processes of national literatures. As a result of the analysis, it is shown that in German and Uzbek literature, the label of the image is not only a means of artistic expression, but also an important aesthetic category reflecting the human psyche, thinking and worldview. Through this approach, the issues of the harmony of tradition and renewal, the dialectical relationship between nationality and universality in the literary process are interpreted more broadly.

Kirish. Hermann Hesse ilk ijodi yozganida o'n yoshida bo'lganligi va u o'z singlisiga ertak bag'ishlagani haqida ma'lumotlar, manbalar mavjud. Chunki yoshligidan aqlu zakovati kitob va ma'naviyatdan o'sib chiqqan yozuvchi uslubi asta-sekinlik bilan ko'plab sirlar qa'riga sho'ng'iy boshlaydi. Yozuvchi har bir asarida imkon qadar yovuzlik ustidan zafar qozonadigan qahramonlarni tasvirlaydi. Buni esa uddalashning yo'l-yo'riqlaridan o'quvchini ham ogoh etib, tushuntirib boradi. Kitob va kitobxon qahramonlar uning ASL adabiyot namoyondalaridir. Sababi, yozuvchi romantik o'y-xayollar og'ushida butun umr kechirimlilik prinsipida bo'ldi. Aytishlaricha u uch marotaba uylangan, lekin birorta turmushi bilan chiqisha olmagan, degan manbalar ham yo'q emas. Unda ayollarga xushomadgo'ylik masalasi masofadan turib gaplashish prinsipiga amal qila olgan.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda nemis va o'zbek adabiyotshunosligida tasvir etiketi, badiiy tafakkur va uslub muammolariga doir ilmiy manbalar qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilindi. Ushbu manbalar adabiy jarayon, janrlar evolyutsiyasi hamda ijod psixologiyasini yoritishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo, adabiy janrlar nazariyasiga oid Adabiy tur va janrlar asarida hikoya va qissa janrlarining struktura xususiyatlari, suyet qurilishi hamda badiiy material tanlash mezonlari batafsil yoritilgan. Ushbu manba tasvir etiketi shakllanishining nazariy asoslarini anglashda muhim ahamiyatga ega [1, 71].

Badiiy nasr poetikasiga doir qarashlar Tatyana Denisova tomonidan ilgari surilgan "ayzberg prinsipi" talqinida keng ochib beriladi. Unga ko'ra, matnda ochiq ifodalangan, biroq yashirin ma'no qatlamlari badiiy ta'sir kuchini belgilaydi [3, 5].

Ijod falsafasi va badiiy tafakkur muammolari Nazar Eshonqul asarlarida chuqur tahlil qilinib, ijod jarayonining psixologik va falsafiy asoslari ochib beriladi. Muallif badiiy idrok va ijodiy ong o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni asoslab beradi [4, 75].

Adabiy tahlil va muallif obrazi masalalari Rahimjon Rahmat tadqiqotlarida yoritilib, tabiat tasviri va ramziylikning badiiy matndagi funksional ahamiyati asoslanadi [6, 101].

Inson psixologiyasi va ijodiy ong muammolari Erich Fromm qarashlarida ham muhim o'rin tutadi. U insonning hayratlanish qobiliyati va ijodiy faolligini badiiy tafakkurning asosiy omillaridan biri sifatida talqin qiladi [8, 38].

Shuningdek, badiiy xotira va idrokning fragmentar tabiati Johan Borgen asarlarida yoritilib, ijodiy jarayonda xotira va tasavvur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asoslab beriladi [9].

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-adabiy tahlil, tizimli yondashuv va strukturaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. Nemis va o'zbek adabiyotida tasvir etiketi masalasini ochib berishda tarixiy-tipologik yondashuv asos qilib olindi, bu orqali turli davr va milliy adabiy an'analaridagi umumiy hamda farqli jihatlar aniqlandi. Shuningdek, matnni interpretatsiya qilish (hermenevtik) metodi yordamida badiiy asarlardagi ramziy va estetik qatlamlar tahlil qilindi. Bundan tashqari, ijod psixologiyasini yoritishda psixologik tahlil elementi qo'llanilib, muallifning badiiy tafakkur jarayoni va tasvir vositalarini tanlash mexanizmi o'rganildi. Mazkur metodlar tadqiqotning ilmiy asoslangan va tizimli yoritilishini ta'minladi.

Natijalar. "Agar shunday ketaveradigan bo'lsam, o'ylardim men, yanada ko'proq qarag'aylar, yanada ko'proq qorlar uchraydi, undan so'ng"

ehtimol Layptsig yoki Berlin boshlanar, keyin esa Shpitsbergen va Shimoliy qutb ko'rinib qolsa, ajabmas. E xudo, yaxshiyamki, Drezdenga taklifnomani qabul qilmaganim-a! Buni tasavvur ham qilib bo'lmadi. Busiz ham yo'l uzoq, haddan ziyod uzoq edi, men Nyurnbergga yetib kelgach, xursand bo'lib ketdim. Ko'nglimda men bu gotik shaharda har turli mo'jizalar kutgandim. Hoffmann va Vakenroder ruhi bilan uchrashaman deb umid qilganman, biroq afsuski, bundan hech nima chiqmadi. Shahar menda dahshatli taassurot qoldirdi, bunga albatta, o'zim aybdorman. Men haqiqatan ham maftunkor, Ulmdan ko'ra boyroq, Augsburgdan ko'ra o'ziga xosroq eski shaharni ko'rdim, – deya yozadi Hesse o'zining safarnomasida [1].

Ya'ni safarda u o'z tug'ilib o'sgan maskanlarining, o'tmish ajdod, yoki zamonoshlarining ruhi bilan hech bo'lmaganda muloqot qilardim, degan o'yda safarnoma bitadi. U bundan ham ko'ngli to'lmay, hayot haqiqatini izlashda davom etadi. Adib har qanday sharoitda vaziyat va tabiat taqozosiga ko'ra ishlash prinsipiga doim amal qilib, puxta rejalar negizida ish yuritadi. Shuning uchun ham u juda ko'plab odamlarning mehru muhabbatiga sazovor bo'ladi. Yozuvchi hikoyadan qissa tomon badiiy tafakurda o'sib borarkan, eng iztirobli ko'ringan narsalarni ham nafis hamda bejirib tasvirlash holini egallaydi. Mana shu jihatlar ham adibga cheksiz shon-shuhrat ham keltirishda davom etadi.

XX asr o'zbek nasrida o'chmas iz qoldirgan yozuvchi adabiy ta'sir doirasi nihoyatda kengligi bilan alohida mavqe kasb etarkan, hikoyanavos sifatida S.Moem, J.London, E.Xeminguey yoki J.Joyslardan farqli o'laroq, kishi ruhiyatiga lirik ko'chim va kechinmalarni joylay olgan. Norveg mutafakkir adibi Yuxan Borgen ijod psixologiyasiga doir murakkab jarayonlar xususida yozadi: *“Insonning o'tmish haqidagi xotiralari hech qachon yaxlit shaklda saqlanib qolmaydi, balki nozik bir ishora, mavhum tuyg'u yoki buyum timsolida mil etadi-yu, tizginsiz xayollar oqimiga singib ketadi”*. [9]

Uning fikricha, badiiy ijod mavhum tuyg'ular shu'lasini ilg'amoq, so'zda ifoda eta bilmog'dir. Ijod – ko'p bosqichli hodisa. Shubhasiz, Yuxan Borgen nazarda tutgan ushbu jarayon ham jahon adabiyotining duch kelgan namunasiga emas, balki badiiy ijodning eng oliy bosqichiga tegishli, novellani yozish mahorati mavjud egasiga ham tegishli ekanligi namoyon bo'ladi. Bir qarashda Yu.Borgenning adabiy farashlarida haqiqat bo'rtib ko'rinsa-da, inson fe'lining inja sirlari, uning jamiyatdagi ko'pchilikka ma'qul kelgan yoki kelishga olib kelmagn vaziyatlari ham bo'y ko'rsatadi. Insonning mavjudlik jumbog'iga kirib borish, hayotning pastu balandini anglash uchun bir vosita, xolos. Adib ana shu balandlikni zabt etishi uchun katta bir oqimni suzib o'tishi shart bo'ladi.

Mutaxassislar olimlar hikoya haqidagi nazariy qarashlarini quyidagicha ifodalari ekan: *“Hikoyaga material tanlay bilishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Yozuvchi juda ko'p, boy va e'tiborli hayotiy materialni o'rgangan, uni egallagan bo'lishi mumkin. Ammo bu bilan ish bitmaydi. Hamma voqealarni asarga kiritaverish g'oyaviy tarqoqlikka olib keladi. Bu o'rinda novellist mahorati asar g'oyasigagina xizmat qiluvchi materialni chegaralab olib bilishi bilan baholanadi. Mashhur fransuz yozuvchisi Bualo aytgandek, hayotiy materialni asarga kiritishda yozuvchi o'zini jilovlamaguncha yozuvchi bo'lolmaydi”*. [2.71]

Qisqa syujet ichiga butun bir yarim asrlilik voqeani singdirish uchun yozuvchi o'ta mahorat va tafakkur sohibi bo'lishi kerak. Ayni damda, ana shu butunlikni anglatish uchun uslubini, yo'lini topishi juda-juda zarurdir. Ko'pchilik hikoyanavislar ushbu joyga kelganda bizoz ikkilanib harakatlanadi.

O'zbek adabiyotida Isajon Sulton ijodining yuzaga kelish omillari. XX asrning 90-yillarida “Sharq yulduzi” jurnalida ilk qissasi bosilgan yozuvchi Isajon Sulton 1967-yil 6-aprelda Farg'ona viloyatining Rishton tumani Avazboy qishlog'ida o'qituvchi oilasida tavallud topadi. Uning har bir asarida qishloq odamlari, tabiat, xuddi Hermann Hess kabi shoirona nigoh tarozisi qabarib ko'rinadi. Adib yoshligidan tabiat hodisalarni tasvirlar ekan, inson qalbida balqan dunyoqarash metamorfozasini tayin etadi. O'z qarashlari azaldan turkiy xalqlar folklorida shakllangan adib keyinchalik jahon hikoyanavislari, qissago'ylari, romannavislarini sinchiklab mutolaa qilishda yuzaga keladi. Ayniqsa, yozuvchining hayot haqidagi qarashlari-yu, tafakkur saviyasi Alisher Navoiy va yozma yodgorliklarga muhabbat negizida barqarorlashdi. Chunonchi yozuvchi o'z qismatini ana shu rangin mezonlar bilan payvasta etarkan, hikoyadan – qissaga o'sish konsepsiyasi yanada mustahkamlandi. Adibning oilasi juda mutolaaga kirgan, otasi ana shu farzandlarini kitob bag'rida katta qishlida ham ijod psixologiyasiga doir qo'llanmalar bor. Ayni damda, adib xalq yozuvchisi, qator xalqaro mukofotlar, o'ndan ortiq tillarga asarlari tarjima qilinib shuhrat topayotgan bo'lsa, buning barchasida kitobga, adabiyotga, san'atga bo'lgan muhabbatning real namunasi deyish mumkin. Insoniyat tafakkuri azaldan ruhiy mutolaa bilan bardavomdir. Isajon Sulton ham ana shun kabi sintezlash yo'lidan bormoqda. Ellik to'qqiz bahorni qarshi olgan yozuvchi hamon izlanishdadir.

Adabiyotshunos Rahimjon Rahmat Isajon Sulton haqida shunday deydi: *“Isajonning asarlaridagi ruh shunday: ko'zning atrofida iztirob izlari, ko'zning o'zida esa dard aks etgan, ko'z tubida esa yulduz kabi umid nurlanib turadi. Tabiat hodisalari, manzaralariga Isajon ramziy ma'no yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo'shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilidi bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bo'lgan hikmatini aks ettirishga harakat qiladi. To'g'rirog'i, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday ma'noli va ta'sirli usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o'qib butun borliqni boshqarib turgan Oллоhning irodasini rosmona his qilamiz”*. [6.101] Darhaqiqat, mana shu lavhadan ham anglashimiz mumkin, nemis yozuvchisining tasvir usuliga o'xshash motivlar uyg'unligini topishimiz mumkin. Chunki Isajon Sulton ham tabiat haqidagi qarashlari bilan inson fenomenini, mutafakkirlik tuyg'usi bilan omuxta olib bora olgan adib sifatida gavdalanadi. Isajon Sultonning hikoyalarida dardchil o'y-fikrlar, olam hamda odam muammolari o'z-o'zidan tabiatga borib tutashadi. Bular xarakterlarni yanada go'zal chiqishida qo'l keladi.

Butun ittifoq bo'ylab kommunistik mafkura odamzodning “ongini yuvish” bilan shug'ullandi. Ongimizda azal-azaldan yashab kelayotgan milliy o'zlik “men”, qadriyat va e'tiqodni tashqariga quvib chiqarishga urindi hamda ma'lum ma'noda maqsadiga erishdi. “Psixanalitiklarning aniqlashicha, “kumir”, ya'ni ideal deya bilish va itilish, garchi u inson ongli faoliyatining dastlabki bosqichiga xos bo'lsa-da, insonni faollashtiradi, ma'lum maqsadga yo'naltiradi. Sharqda esa o'z ilohiy qudrati, bilimi bilangina emas, yashash tarzi, e'tiqodi bilan ham saboq bo'lgan kishilarni “pir” deb ularga qo'l berganlar. O'z e'tiqodi yo'lida o'limga tik borgan pirlar haqida biz bugun uyg'onish davrida ehsitayapmiz, o'qiyapmiz, ular erishgan yoki erishishi mumkin bo'lgan faoliyat ko'lamlarini chamalab ko'rayapmiz. Buyuk ajdodlarni mutolaa qilayapmiz. Bo'shliqlar to'lib borgandek bo'layapti”. [5] Ko'rinadiki, N.Eshonqul ichki iztirob bilan so'z yuritayotgan masala yillar davomida “soxta metod girdobida” qolib keldi.

Rus olimi S.Denisova fikrlari maqsadga muvofiqdir: *“Agar adib yozayotgan narsalaridan juda yaxshi xabardor bo'lsa, bilganlarining ko'pini matndan tushirib qoldirishi mumkin va u agar haqqoniy voqealarni tasvirlayotgan bo'lsa, o'quvchi bu tushirib qoldirilgan tafsilotlarni yozuvchi qalamga olganligidan ham kuchli his etadi. Aysberg suzib yurishining ulug'vorligi shundan iboratki, uning faqat sakkizdan bir qismi suv yuzasida qad rostlab turadi”*. [3] Darhaqiqat, Hermann Hesse ham ana shu balandlikka chiqa oldi. Uning izdoshlari hamon dunyo adabiyotida munosib o'rin egallab asl adabiyot shaklu shamoyilini muntazam yangilashga xizmat qilib kelmoqda.

“Badiiy asarni tahlil qilar ekanmiz, ishtirok etuvchi personajlar bilan bir qatorda, muallif shaxsining ham ishtirok etayotganligini yo ko'rmaymiz, yoki ko'rib-ko'rmaslikka olamiz. Badiiy asarlarda muallif obrazi hikoya qilish uslubidan tortib, asarning tili va tasvir usullarida, hayotiy material va voqea-hodisalarga munosabatda ham aniq namoyon bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, muallif obrazi uning asarda yorqin ifodalangan estetik idroklari, tafakkuri, mafkurasini, tasvirlanayotgan narsa va illatlaridan tashkil topadi”. [7.47] Haqiqatdan ham, badiiy asar xoh u monologik usulda, xoh dialogik yo'sinda ifoda etilmasin, muallif obrazi voqelikda turli shakllarda namoyon bo'ladi, biroq parcha asardagi obrazni muallifning shaxsiy, intim hayotidan “olingan arxan” deb tushunmaslik kerak. Undagi ruh, kayfiyat, ongli va ongsiz hayot nashidalarini muallifning o'zidan ajralib chiqqan ikkinchi bir maydon, hudud, manzildir. Ko'pchilik hollarda muallif-rovoy-qahramon tushunchasi noto'g'ri qo'llaniladi.

Muhokama. Isajon Sulton hikoyalarida oddiy mehnatkash qishloq odamlarining odatiy kundalik yumushlardan boshi chiqmagan, bir umr bola-chaqam deb o'tib ketayotgan obrazlarga yuzma-yuz kelamiz. Adib badiiy izlanishlarida mifologik obrazlarni qadim afsona va rivoyatlarda ko'zga tashlanuvchi asarlarni qayta ishlaganligini his qilamiz.

Psixanalitik Erix Fromm XX asr insoniyat taqdirida muhim va hal qiluvchi misli ko'rilmagan kashfiyotlarni boshidan o'tkazayotgani haqida quyidagi fikrlarni yozadi: *“Aqlli inson hayratlanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Agar shu gap rost bo'lsa, hozirgi zamon odamining aqliy holatiga achinsa bo'ladi. Yuksak darajada ma'lumotli va bilimli bo'lishimizga qaramasdan, Xudo bergan bu ne'matni – hayratlanish qobiliyatini yo'qotib qo'ydi. Go'yo hamma narsa ma'lum, biz bilmagan narsalarni esa ayrim mutaxassislar bilishi shart. Haqiqatdan ham hayratlanish qobiliyatiga tug'diradi. Atrofdagilar bunday odamni aql-idroki past deb o'ylaydilar. Hatto bolalar ham kamroq hayratga tushishadi, hech bo'lmaganda, buni namoyish qilgisi kelmaydi, vaqt o'tgani sari esa bunday qobiliyat yo'qola boradi”*. [8.38] Binobarin, benihoya katta aql egalari ham hayotdan hech qachon ko'ngli to'lgan emas. Sababi his va hayrat, aql birlashishida insonning ma'nan qobiliyati, yaratuvchanligi, barcha qusurlari bilan ijobiy xislatlari ham yuzaga chiqadi. Ijodkorlar ana shu nuqtani tahlil va tadqiq

qilishga ko'p vaqt sarflaydilar. Bu nuqtada – odamzodning maqsad muddaosi, yashash va ko'nikish tarzi, yovuzliklari, zo'ravonliklari, xunrezliklari bilan birga barcha yaxshi va yomon fazilatlarini mujassam bo'ladi. Isajon Sulton ana shu manzarani obrazli tarzda, universal ramzlar negizida “qayta kashf” qilishga harakat qiladi. Xoh bu ramziy, an'anaviy, modernistik shaklda namoyon bo'lishidan qat'i nazar oltin o'rtalikni tutib qolishga ko'p vaqt ajratadi.

Nemis yozuvchisi Hermann Hesse tabiatidagi o'sish-o'zgarishlar o'zbek yozuvchisi Isajon Sulton ruhiyatida ham akslanar ekan, uni shundayligicha ko'chirmalar deb bo'lmaydi. Chunki uslub va shakl mezonlari har bir individning Alloh tomonidan berilgan ne'matidir.

XX asr insoniyat yetib kelgan makonlarda kechuvchi voqealik yozuvchini doimo qalb qo'rini junbushga keltirib, odamzod iztiroblari bilan yakka qolishni istagan qahramon tabiatini o'ziga ko'rib, yangi ulug'vor maqsadlari sari yo'naltirishga e'tibor qaratadi. Bular zamon tabiatida, makon xususiyatida – obrazlar sistemasini muvofiqlashtirishga keng yo'l ochib beradi. “Inson jannatdan quvilgan lahzadayoq uning ko'nglini iztirob va uyat qoplab olgan. Ana shu iztirob madaniy ongning, barcha adabiyotning, san'atning mavzusidir. Chunki inson jannatdan quvilishi bilanoq butunlikdan parchaga, yaxlitlikdan yakkaga aylandi. San'at parchalanishga emas, yaxlitlikka, butunlikka, asl bilan birlashishga undashi kerak. Inson qalbidagi asliga qaytish istagini ko'rsatib bergan va shunga undagan adabiyotgina haqiqiy adabiyotdir. Fojia shundaki, oradan o'tgan tarixiy jarayonlarda, taloto'plarda inson o'zining jannatdan nega quvilganini

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/hermann-hesse-nyurnbergga-sayohat.html>
2. Адабий тур ва жанрлар. 1-жилд. –Т: ЎзФА. “Фан”. 1991. –Б.71.
3. Денисова Т. Секрет “айсберга: О художественной особенности прозы Э.Хемингуэя// Литературная учёба, 1980, № 5.
4. Назар Эшонкул. Ижод фалсафаси. –Т: “Akademnashr”. 2018. – Б.75.

va bo'yniga osilgan gunoh yukini, bu gunohning mas'uliyatini unutilib qo'ydi. Shuning uchun ham boylikka, hokimiyatga, nafsga ruju qo'yishi o'sha birinchi gunohining asoratidir. Oqibatda o'zini muqarrar halokatga tashlab boryapti”. [4.75]

O'tgan XX asr va to bugunga qadar yetib kelgan “baxt va saodat” manzili, qanchadan-qancha yolg'on shiorlar, tamaddun zahmatlari, urushlar va qirg'inbarotlar, sivilizatsiyaning ta'siri, ekologiya, tabiiy ofatlaru sun'iy yaratishlar, ruh fojeasi odamzodning – ertasiga, kechasidan qolgan azaliy meros ekanligi ayonlashadi. Isajon Sulton ana shu kabi umum aziyat chekayotgan falokatli iztiroblarni qalamga olishga jiddiy e'tibor qaratadi. Har bir yozuvchi ana shunday shakllar va mayllar, ma'no izlayotgan odam obrazini hamda hayotdan qoniqmaslik instinkitini baralla kuylay olganligida qabarib ko'rinadi. Mana shu jihatlar yozuvchi ijodida har qanday vaziyatda olam haqidagi tafakkur signalining sarzanishlaridir desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Xulosa. Nemis adabiyotida munosib iqrin tutgan yozuvchilar nihoyatda ko'p va ularning o'zbek nasriga bevosita ta'siri ham xilma-xildir. Ana shu xilma-xillik natijasida adiblar badiiy shaklning hamma janrlarida akslanmoqda. Benazir yozuvchi Herman Hessedagi tabiat va jamiyat masalasi Isajon Sulton konsepsiyasiga aylanayotgan ekan, mavjud aqidalarga hamohanglik, yangicha usulda yozib ko'rish instinkitini paydo qiladi. Metarivoyatlar shaklida yuzaga kelgan tasvir o'z-o'zidan olamdagi tartibotlar izida yanada ravshanlashadi.

5. Назар Эшонкул. Мендан “мен”гача. –Т: “Akademnashr”.
6. Раҳимжон Раҳмат. “Муножот”дан “Бокий дарбадар”гача. –Т: “Муҳарир”. 2017. –Б.101.
7. Раҳимов А. Роман санъати. –Фарғона. 2015. –Б. 47.
8. Эрих Фромм. Инсон қалби. –Т: “Ўзбекистон”. 2016. –б,38.
9. Юхан Борген. Ёзувчи бўлмақ нима дегани? // Жаҳон адабиёти, 2001, 2-сон.